

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»

Rektor

Sh.Sirojiddinov

01 2025-y.

**60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi kunduzgi ta‘lim shakli  
bitiruvchi talabalari uchun 2024/2025-o‘quv yilida bitiruv malakaviy ishi  
himoyasi va fanlararo (Hozirgi o‘zbek tili, O‘zbek adabiyoti, Davlat tilida ish  
yuritish va monitoring, Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya)  
Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi**




**D A S T U R I**

Bilim sohasi: 200000 – San‘at va gumanitar fanlar  
Ta‘lim sohasi: 230000 – Tillar

**Toshkent – 2025**

Ushbu dastur 2024/2025-o'quv yilida 60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchi talabalari uchun 2021/2022-o'quv yili va 2022/2023-o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejaralaridagi Hozirgi o'zbek tili, O'zbek adabiyoti, Davlat tilida ish yuritish va monitoring, Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya fanlari (majburiy fanlar)ning tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tuzilgan.

#### TUZUVCHILAR:

- M. Abjalova**  ToshDO'TAU "Nazariy va amaliy tilshunoslik" kafedrasida dotsenti, f.f.d.(DSc)
- O. Tojiboyeva**  ToshDO'TAU "O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik" kafedrasida dotsenti, f.f.d (PhD)
- E. Xonnazarov**  ToshDO'TAU "Nazariy va amaliy tilshunoslik" kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.d.(PhD)

Ushbu dastur "Nazariy va amaliy tilshunoslik" kafedrasining 2024-yil 12-dekabrda № 8-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Ushbu dastur universitetning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi №\_\_-sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.



#### KIRISH

Mazkur dastur 200000 – San'at va gumanitar fanlar ta'lim sohasining DTS, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-avgustda 365-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-sonli qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi nizom asosida tayyorlandi.

Attestatsiya majburiy fanlar bo'yicha sinov va bitiruv malakaviy ishi himoyasi shakllarida o'tkaziladi. Attestatsiya bitiruv malakaviy ishi himoyasi shaklida o'tkazilganda talaba yuqoridagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar, shuningdek, "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar" asosida bitiruv malakaviy ishini tayyorlaydi. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar bitiruv malakaviy ishining talab darajasida bajarilganiga ishonch bildirgandan so'ng ilmiy rahbar xulosasi bilan birga kafedraga taqdim etadi. Kafedrada bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi o'tkaziladi. Kafedra majlisi taqdim qilingan materiallar asosida bitiruv malakaviy ishini yakuniy davlat attestatsiyasida himoya qilishga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qiladi. Kafedra majlisi bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala alohida muhokama qilinib, malis bayonnomasi rektoratga taqdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan bitiruv malakaviy ishi taqrizchilarga yuboriladi. Taqrizchi sifatida mazkur universitet mutaxassislik kafedrasining professor-o'qituvchilari, boshqa oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, shuningdek, ish beruvchi soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

Talaba to'rt yillik o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida hozirgi o'zbek tili, o'zbek adabiyoti, shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya, davlat tilida ish yuritish fanlarini puxta bilgan amaliy filologiya bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishadi. Shu sababli attestatsiya majburiy fanlar bo'yicha sinov shaklida o'tkazilganda 2024/2025-o'quv yilida 60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchi talabalari uchun 2021/2022-o'quv yili va 2022/2023-o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejaslaridagi majburiy fanlardan "Hozirgi o'zbek tili", "O'zbek adabiyoti", "Davlat tilida ish yuritish va monitoring", "Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya" fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilandi.

**I. 60230700 – Amaliy filologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar.**

Bitiruvchi talabalar quyidagi kasbiy kompetensiyalarni egallagan bo'lishi zarur:

– adabiyotshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiyasi va ilmiy yondashuvlarni bilish, adabiyotshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;

– tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;

– hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik, grafik, leksik, morfologik, morfemik, sintaktik xususiyatlarini, o'zbek tili orfografik va punktuatsion adabiy me'yor, qoidalarni to'la o'zlashtirib, o'zbek tilining nazariy-amaliy masalalari tadqiqi va tatbiqini tahlil qilish, matn yaratish, tahrir jarayonida foydalana olish;

– badiiy adabiyot, o'zbek adabiyotining tur va janriy masalalarini, barcha badiiy-estetik tabiatini, davrlarini mukammal o'rganib, o'zbek adiblarining asarlari asosida tilning imkoniyatlarini, badiiy adabiyotning nutq, muloqot faoliyati bilan bog'liq imkoniyatlarini baholay olish, tahlil etish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– o'zbek tilining sotsiologiyaviy xususiyatlarini bilish, amaliy filologiya va sotsiologiya munosabatlarini anglash, tahlil qilish, til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga ta'siri, til siyosati, millat va milliy til muammolarini farqlash;

– o'zbek tili va adabiyotiga oid nazariy bilimlarni muntazam takomillashtirib borish, ona tili va adabiyot fanlarining dolzarb masalalarini ilg'ay olish, kasbiy faoliyatida qo'llay bilish;

– muloqotga kirishuvchanlik, nutqning ta'sirchanligi, shaxsiy va kasbiy nutq texnikasini egallashi; o'z faoliyati jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosida shaxslararo munosabatlarni o'rnatishni tanlay olishi, muloqot nazariyasining asosiy qoidalari, madaniyatlararo, shaxslararo va ommaviy muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi, madaniy va xilma-xillik haqida tushunchaga ega bo'lish, shaxsiy va kasbiy muloqot turlaridan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi;

– badiiy asarni, adabiy va boshqa matnlarni lisoniy tahlil etish hamda uning metodlarini qo'llay olish;

– me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– mumtoz asarlarni sharhlash bosqichlari, sharhlashning tarixi, mantiqiy asoslari haqida bilim va ko'nikmalarga, mumtoz asarlarni sharhlashning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda filologiya fanida tutgan o'rni haqida bilimlar, sharhlashning zamonaviy metodlaridan xabardor bo'lish hamda ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**II. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun mavzular mazmuni.**

**“HOZIRGI O'ZBEK TILI” fani bo'yicha:**

Til, lison va nutq munosabati, Til sathlari va birliklari. Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi. Lisoniy va nutqiy birliklar. Lisoniy paradigma va uning turlari.

Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari. Nutq tovushlari fonetik birliklar sifatida. Nutq tovushining turlari, xususiyatlari. Nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti. Nutq tovushining akustik belgilari. Nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti.

Unli fonemalar tasnifi. Undosh fonemalar tasnifi. Fonetik o'zgarishlar. Singarmonizm. Grafika. Orfoepiya. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek orfografiyasi tamoyillari.

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi.

Leksema – shakl va ma'no unsuridan iborat birlik sifatida. O'zbek tilida leksik-semantik paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Lisoniy sinonimlar, nutqiy sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lug'aviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami.

Leksik antonimiya. Antonimik juftlik. Lisoniy va nutqiy antonimiya.

Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar. Paronim va paranomaziya. Giponimiya, graduonimiya.

O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar.

Leksikografiya. Lug'at turlari va tiplari. Lug'at maqolalarining joylashtirilish tartibi va sxemasi.

Morfema morfemika birligi sifatida. Grammatik morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari.

O'zbek tilida so'z yasalishi. So'z yasash qolipi.

O'zbek tili grammatik (morfologik) kategoriyalari va ularning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.

O'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari.

Fe'l. Fe'lning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Fe'lning lug'aviy-grammatik guruhlari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning so'z turkumlari sistemasidagi o'rni.

Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi. Fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi.

Fe'lning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida. [ravishdosh+ko'makchi fe'l] harakat tarzi kategoriyasi shakli sifatida.

Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari.

Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi.

Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida.

Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning tasniflanishi. Numerativlar.

Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarimaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning guruhlari.

Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarimaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning guruhlari.

Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o'rni.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi.

Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari.

Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Ko'makchi, uning xususiyatlari va turlari.

Bog'lovchi, uning xususiyatlari va turlari.

Yuklama, uning xususiyatlari va turlari.

So'z-gaplar, ularning xususiyatlari va turlari.

Sintaksis va uning o'rganish predmeti. Sintaktik birliklar: so'z birikmasi va gap. O'zbek tilida lisoniy sintaktik qolip va uning turlari: so'z birikmasi qoliplari va gap qoliplari, ularning qurilish xususiyatlari.

Erkin birikmalar va uning turlari. So'z birikmasi, uning xususiyatlari. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.

Birikmalarda sintaktik aloqani ta'minlovchi vositalar.

Sodda gap tasnifi masalasi. Markaz va uning qurshovi. Gap markazi. Gap va so'z kengaytiruvchilari. Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning turlari: mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim. Fe'l kesim va ism kesim. Fe'l kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish imkoniyatlari kengligi. Fe'l kesimning tuzilish turlari va ko'rinishlari. Ism kesim, uning grammatik shakli, ifodalanishi. Bog'lama, uning ko'rinishlari. Ism kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish xususiyatlari. Fe'l kesimning tuzilish turlari va ko'rinishlari.

Eganing gap qurilishidagi o'rni. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi.

Holning gap qurilishidagi o'rni, ma'naviy turlari, ifodalanishi.

To'ldiruvchining gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatidagi o'rni, ifodalanishi. To'ldiruvchilarning turlari.

Aniqlovchining gap qurilishidagi o'rni, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.

Qo'shma gap tasnifi masalasi. Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra turlari: teng munosabatli, tobe munosabatli, mutanosib munosabatli qo'shma gaplar. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra turlari: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bog'lovchilar vositasida, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida, nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap. Tinish belgilari va ularning qo'llanilishi.

#### “O'ZBEK ADABIYOTI” fani bo'yicha:

“O'zbek adabiyoti” kursi predmeti, obyekt, maqsad va vazifalari. O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar.

Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida.

XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko'tarilishi. Qoraxonlilar davrida turkiy madaniyatning

taraqqiyoti. Bolasog'un va Koshg'ardagi madaniy hayot. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Qoraxoniylar davri adabiyotida an'anaviylik va o'ziga xoslik.

"Devonu lug'otit-turk" – adabiy manba sifatida. "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibat ul-haqoyiq".

XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayot, madaniy muhit. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot. Sayfi Saroyi hayoti va ijodining manbalari. Hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari. Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. Tarjimai holiga doir ma'lumotlar.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari. Ilk devon. Oqquyunli muxlislar devoni. "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlari. "Badoyi' ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniy" – lirik qomus sifatida. Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. «Devoni Foni»ning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari, Devondagi g'azallar talqini.

Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. Adabiyotshunoslik asarlari. "Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki til muhozasasi.

Bobur hayoti va adabiy merosining o'rganilish tarixi. Shoir she'riyati, devonlari, badiiy mahorati. "Boburnoma", "Risolai aruz", "Volidiya" va "Mubayyin" asarlarining adabiy qimmatini.

Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. O'rganilish tarixi. Shoirning adabiy-ilmii merosi. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni.

Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati.

Furqat (1859-1909). Tarjimai holi. Farg'ona hamda Toshkent davri faoliyati. Avaz O'tar hayoti va ijodi.

Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919). Hayoti va faoliyatining o'rganilish tarixi. Abdulla Avloniy (1878-1934). Avloniyshunoslik. Hayoti sahifalari. To'lagan Xo'jamiyrov - Tavallo (1883-1937). Adabiy merosining o'rganilish tarixi. Sirojiddin Sidqiy (1884-1934). Shoir ijodining o'rganilishi. Hayoti va ijodiy faoliyati. So'fizoda (1880-1937). Hayot yo'li va ijodiy merosining o'rganilishi tarixi. Abdurauf Fitrat (1886-1938). Hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi,

manbalari. Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929). Hamzashunoslik tadriji. Shoir ijodiga ikki xil yondashuv: sabablari, oqibatlarini. Abdulla Qodiriy (1894-1938). Hayoti sahifalari. Ijodiy merosi. "Baxtsiz kuyov" pyesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman – "O'tkan kunlar"ning yaratilishi. "Mehrobdan chayon" romani. Cho'lpon (1897-1938). Tarjimai holi. Jadidchilik va Cho'lpon she'riyati. Shoirning o'zbek she'r tizimidagi islohotlari. Hikoyalari. Dramalari. "Kecha va kunduz" romani.

G'afur G'ulom hayoti va ijodi. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi. Oybek hayoti va ijodi. Odil Yoqubov romanchiligi. Said Ahmad hayoti va ijodi. Abdulla Qahhor ijodi. Hamid Olimjon ijodi. Zulfiya she'riyati. Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi. Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon she'riyati. Abdulla Oripov ijodi. Erkin Vohidov ijodi.

#### **"DAVLAT TILIDA ISH YURITISH VA MONITORING" fani bo'yicha:**

Hujjatlik tarixi. O'zbekiston Respublikasida hujjatlikning takomillashuvi. Ish yuritish tili va uslubi. Ish hujjatlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar. Nutqning uslubiy shakllari.

Hujjat turlari. Tashkiliy hujjatlar. Guvohnoma va uning turlari. Yo'riqnoma va unga xos xususiyatlar. Nizom va unga xos xususiyatlar. Shartnoma va unga xos xususiyatlar. Shartnoma turlari. Mehnat bitimi.

Farmoyish hujjatlari va ularga xos xususiyatlar. Buyruq va unga xos xususiyatlar. Buyruqdan ko'chirma va uning namunasini tayyorlash. Ko'rsatma va uning namunasini tayyorlash. Farmoyish va unga xos xususiyatlar.

Ma'lumot-axborot hujjatlari. Ariza va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Bayonnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Bayonnomadadan ko'chirma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Bildirishnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Dalolatnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Ishonchnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Ma'lumotnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Tavsifnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Tavsifnoma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. E'lon va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Tarjimai hol va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Tilxat va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Tushuntirish xati va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Hisobot va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Xizmat yozishmalari (munzil, taklifnoma, telegramma va telefonogramma). Axborot xatining o'ziga xos xususiyatlari. Axborot xati va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Da'vo xat va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Iltimos xati va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Kafolat xati va unga xos xususiyatlar,

namunasini tayyorlash. So'rov xati va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Tasdiq xat va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Farmoyish xati va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Eslatma xatlar va ularga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlash. Diplomatik yozishmalarning xususiyatlari. Nota va unga xos xususiyatlar. Bayonot va unga xos xususiyatlar. Memorandum va unga xos xususiyatlar. Diplomatik yozishmalarda shaxsiy xatlar.

### “SHAXSLARARO VA MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA”

#### fani bo'yicha:

Kommunikatsiya haqida ma'lumot. Kommunikativ faoliyat va uning shakllanishi. Nutq va uning turlari. Kommunikativ akt modellari.

Shaxslararo muloqot. Kommunikatsiya funksiyalari. Muloqot maqsadi va inson ehtiyojlari. Muloqotda nutqning tinglovchiga ta'siri. Madaniyatlararo muloqotning xususiyatlari. Kommunikatsiya jarayonida rollar almashinuvi.

Nutq va muloqot madaniyati. Muloqot madaniyatini shakllantirish. Muloqot madaniyati va odob-axloq qoidalari. Madaniyatlararo muloqot turlari. Madaniyatlararo muloqot masalalari. Nutqiy akt. Kommunikativ akt modellari. Muloqotda ijtimoiy rol masalasi.

Kommunikatsiya muammolari. Kommunikatsiyada muloqot modelini noto'g'ri tushunish. Kommunikatsiyada fikrni noto'g'ri tushunish. Muloqotda noverbal ifodalar. Yuz ifodalarini ishlatish usuli. Tana holati. Proksemika: makondan foydalanish usuli. Taktik aloqa.

Muvaffaqiyatli muloqot. Muloqot qobiliyati. Kommunikatsiyada tinglash va eshitish. Kichik guruhlarda shaxslararo muloqotning xususiyatlari. Shaxslararo muloqot modellari. Paraverbal aloqa.

### III. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazmuni va shakli

Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinov yozma shaklda o'tkaziladi. Sinov uchun tayyorlangan biletning har birida to'rtta fanning har biridan bittadan – jami to'rtta savol quyidagi tartibda beriladi:

T/r	Fan nomi	Savol soni
1.	Hozirgi o'zbek tili	1
2.	O'zbek adabiyoti	1
3.	Davlat tilida ish yuritish va monitoring	1
4.	Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya	1

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi

o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida belgilangan vaqt va joyda o'tkaziladi.

Talabaga Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida to'rtta savolga javob yozish uchun 3 soat vaqt beriladi.

### IV. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida foydalaniladigan namunaviy savollar.

Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida foydalaniladigan namunaviy savollar quyidagi tarzda biletga taqsimlanadi:

“TASDIQLAYMAN”

Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrasini  
mudiri \_\_\_\_\_ I. Azimova

#### BILET

1. Til, lison va nutq munosabati. (Hozirgi o'zbek tili)
2. Atoyi hayoti va ijodi. (O'zbek adabiyoti)
3. Bayonnomadan ko'chirma va unga xos xususiyatlar, namunasini tayyorlang. (Davlat tilida ish yuritish va monitoring)
4. Kommunikatsiya funksiyalari. (Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya)

### V. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinoviga tayyorgarlik ko'rish uchun bitiruvchilarga metodik ko'rsatma.

Talaba sinovga tayyorlanish jarayonida "Hozirgi o'zbek tili", "O'zbek adabiyoti", "Davlat tilida ish yuritish va monitoring", "Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya" fanlaridan mazkur dasturda ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishi, o'quv dasturlaridagi mavzularni chuqur o'rganishi zarur.

### VI. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovni baholash mezonlari

Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida biletidagi har bir savol Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan talabalar bilimini baholash mezonlari asosida baholanadi.

T/r	Fan nomi	Savol soni	60-69 ball (3 baho)		70-89 ball (4 baho)		90-100 ball (5 baho)	
1.	Hozirgi o'zbek tili	1	15	17	18	22	23	25
2.	O'zbek adabiyoti	1	15	17	18	22	23	25
3.	Davlat tilida ish yuritish va monitoring	1	15	17	18	22	23	25
4.	Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya	1	15	17	18	22	23	25

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinoviga talaba faqat ruxka bilan kelishi shart. Turli adabiyotlar, shpargalkalar va texnik vositalardan foydalanish taqiqlanadi. Bu holat aniqlansa, talaba imtihondan chetlashtiriladi va qoniqarsiz baho qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi jarayonida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Savollar har bir fan kesimida fan mohiyatidan kelib chiqib quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

#### “Hozirgi o'zbek tili” fanidan:

**23-25 ball (“5” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala mohiyatini to'g'ri anglab, mustaqil mushohada yuritgan holda fikrlarini bayon qilishi kerak. Keltirilgan fikrlar misollar bilan asoslanishi zarur. Fikrlar mantiqiy izchillikda, ilmiy uslubda bayon qilinishi lozim. Imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarning har biri ikkitadan oshmasligi kerak.

**18-22 ball (“4” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala mohiyatini to'g'ri anglab, adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Keltirilgan fikrlarga qisman misollar berilishi zarur. Fikrlar ilmiy uslubda bayon qilinishi lozim. Imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarning har biri to'rttadan oshmasligi kerak.

**15-17 ball (“3” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala haqida tasavvurga ega bo'lishi, adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Mantiqiy ichillik saqlanmasa-da, berilgan ma'lumotlar qo'yilgan savolga oid bo'lishi kerak. Imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarning har biri oltitadan oshmasligi kerak.

**0-14 ball (“2” baho)** talaba qo'yilgan masala mohiyatini anglamagan yoki noto'g'ri anglagan, masala yuzasidan tasavvurga ega bo'lmagan, keltirilgan ma'lumotlar qo'yilgan savol mazmunini ochib bera olmagan yoki javob

yozilmagan yoki imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolarning har biri oltitadan oshib ketgan holatda qo'yiladi.

#### “O'zbek adabiyoti” fanidan:

**23-25 ball (“5” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala mohiyatini to'g'ri anglab, muayyan adabiy davr, asar va uning muallifi haqida mustaqil mushohada yuritgan holda fikrlarini bayon qilishi kerak. Fikrlar mantiqiy izchillikda, ilmiy uslubda bayon qilinishi lozim.

**18-22 ball (“4” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala mohiyatini to'g'ri anglab, muayyan adabiy davr, asar va uning muallifi haqida adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Fikrlar ilmiy uslubda bayon qilinishi lozim.

**15-17 ball (“3” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala haqida tasavvurga ega bo'lishi, adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Mantiqiy ichillik saqlanmasa-da, berilgan ma'lumotlar qo'yilgan savolga oid bo'lishi kerak.

**0-14 ball (“2” baho)** talaba qo'yilgan masala mohiyatini anglamagan yoki noto'g'ri anglagan, masala yuzasidan tasavvurga ega bo'lmagan, keltirilgan ma'lumotlar qo'yilgan savol mazmunini ochib bera olmagan yoki javob yozilmagan holatda qo'yiladi.

#### “Davlat tilida ish yuritish va monitoring” fanidan:

**23-25 ball (“5” baho).** Talaba davlat tilida ish yuritish va monitoring faniga oid bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirgan, davlat tilida ish yuritish hujjatlariga xos xususiyatlarni biladi va bilimlarini nazariy jihatdan aniq va mantiqiy bayon qila oladi. Amaliy jihatdan davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini to'g'ri qo'llay oladi va hujjat namunasini to'g'ri yoza oladi.

**18-22 ball (“4” baho)** Talaba davlat tilida ish yuritish va monitoring faniga oid bilimlarni o'zlashtirgan, davlat tilida ish yuritish hujjatlariga xos asosiy xususiyatlarni biladi va bilimlarini bayon qila oladi. Amaliy jihatdan davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini to'g'ri qo'llay oladi va hujjat namunasini to'g'ri yoza oladi.

**15-17 ball (“3” baho)** Talaba davlat tilida ish yuritish va monitoringga oid bilimlarni sayoz o'zlashtirgan, davlat tilida ish yuritish hujjatlariga xos asosiy xususiyatlarni qisman biladi va bilimlarni bayon qila oladi. Hujjat namunasida imloviy, uslubiy, texnik xatoliklar uchraydi.

**0-14 ball (“2” baho).** Talaba qo'yilgan masala mohiyatini anglamagan yoki noto'g'ri anglagan, masala yuzasidan tasavvurga ega bo'lmagan, keltirilgan ma'lumotlar qo'yilgan savol mazmunini ochib bera olmagan yoki javob

yoziilmagan holatda qo'yiladi. Talaba ish yuritish hujjatlariga xos xususiyatlarini bilmaydi. Hujjat namunasini to'g'ri yoza olmaydi.

**“Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya” fanidan:**

**23-25 ball (“5” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala mohiyatini to'g'ri anglab, adabiyotlardagi ma'lumotlardan kelib chiqib mustaqil mushohada yuritgan holda fikrlarini bayon qilishi kerak. Fikrlar mantiqiy izchillikda, ilmiy uslubda bayon qilinishi lozim.

**18-22 ball (“4” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala mohiyatini to'g'ri anglab, adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Fikrlar ilmiy uslubda bayon qilinishi lozim.

**15-17 (“3” baho)** olishi uchun talaba qo'yilgan masala haqida tasavvurga ega bo'lishi, adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Mantiqiy ichillik saqlanmasa-da, berilgan ma'lumotlar qo'yilgan savolga oid bo'lishi kerak.

**0-14 ball (“2” baho)** talaba qo'yilgan masala mohiyatini anglamagan yoki noto'g'ri anglagan, masala yuzasidan tasavvurga ega bo'lmagan, keltirilgan ma'lumotlar qo'yilgan savol mazmunini ochib bera olmagan yoki javob yoziilmagan holatda qo'yiladi.

**Bitiruv malakaviy ishini baholash mezonlari**

Bitiruv malakaviy ishi 5 – “a'lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baholardan biri bilan baholanadi. Bunda:

Mavzu yuzasidan talabani nazariy materialni bilishi – 30 %;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati – 20%;

Ishining imloviy, uslubiy, punktuatsion xatolardan xoliligi – 20 %;

Ishning amaldagi talablar asosida rasmiylashtirilishi – 10 %;

Talabani taqdimotdagi nutqi, savollarga bergan javoblari – 20 %.

Foizlar umumlashtirilib, quyidagicha baholarga konvertatsiya qilinadi:

YDA umumiy baholash		Baholash							
Maks	min	A'lo		Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
		maks	min	maks	min	maks	min	maks	min
100	60	100	90	89	70	69	60	59	0
5	3	5		4		3		2	

**VII. Apellatsiya komissiyasiga murojaat qilish tartibi.**

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi natijalaridan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appellatsiya komissiyasi raisiga yozma ravishda murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Apellatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

**VIII. Tavsiya etiladigan adabiyotlar yoki boshqa manbalar ro'yxati.**

**Asosiy adabiyotlar**

**Hozirgi o'zbek tili**

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
3. Mirtojiyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I jild. - T.: O'zMU, 2004.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.
5. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. I jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
6. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. II jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 359 b.
8. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 200 b.

**O'zbek adabiyoti**

1. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-, 2-jild. – T.: Fan, 2005, 2007.
2. Воҳидов Р., Эшонкулов Х. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
3. Qosimov B va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent, 2006.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2018.

**Davlat tilida ish yuritish va monitoring**

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2007.

2. Aminov M. v.b. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
3. Zaripov R.E. O'zbekistonda davlat tili menejmenti: sotsialingvistik aspekti va huquqiy-me'yoriy asoslar. Monografiya. – Toshkent. 2023. B. 170.
4. Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm. Monografiya. – Toshkent. 2023. B. 100.

#### **Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya**

1. Shoyimova Sh. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2017.
2. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2017.
3. Выготский Л.С., Лурия А.Р. Этюды по истории поведения. Обезьяна. Примитив. Ребенок. М.: Педагогика-Пресс, 1993.
4. Кашкин В.Б. Основы теории коммуникации. М., 2007, электронная версия // <http://kachkine.narod.ru/CommTheory/Contents/Contents.htm>

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

##### **Hozirgi o'zbek tili**

1. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
2. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
3. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyazova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 280 b.

##### **O'zbek adabiyoti**

4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.
5. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Т., 2006.
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жилдлар. –Т.: Фан, 1987-2003.
7. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-10 жилдлар. – Т.: Фафур Ғулум нашриёти, 2011.
8. Алишер Навоий: комусий лугат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сироҷиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
9. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. Монография. – Т.: “Мумтоз сўз”, 2016.

10. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.

11. Ўзбек адабиёти тарихи, 5 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Т.: Фан: 1977.

12. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва мишлий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Т.: TAMADDUN, 2016.

#### **Davlat tilida ish yuritish va monitoring**

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish: Amaliy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – 328 b.
2. Mahmudov N. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2008.

#### **Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya**

1. Кликс Ф. Пробуждающееся мышление: У истоков человеческого интеллекта. Глава 3. Роль коммуникации и познания в регуляции поведения животных. М.: Прогресс, 1983. С. 76 сл.
2. Леонтьев А.А. Возникновение и первоначальное развитие языка. М.: АН СССР, 1963.
3. Норман Б.Ю. Проблема происхождения человеческого языка // Основы языкознания. Минск: Бел. Фонд Сороса, 1996. С. 70-86.

#### **Internet saytlari**

1. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

1. ...  
2. ...  
3. ...  
4. ...  
5. ...  
6. ...  
7. ...  
8. ...  
9. ...  
10. ...  
11. ...  
12. ...  
13. ...  
14. ...  
15. ...  
16. ...  
17. ...  
18. ...  
19. ...  
20. ...  
21. ...  
22. ...  
23. ...  
24. ...  
25. ...  
26. ...  
27. ...  
28. ...  
29. ...  
30. ...  
31. ...  
32. ...  
33. ...  
34. ...  
35. ...  
36. ...  
37. ...  
38. ...  
39. ...  
40. ...  
41. ...  
42. ...  
43. ...  
44. ...  
45. ...  
46. ...  
47. ...  
48. ...  
49. ...  
50. ...  
51. ...  
52. ...  
53. ...  
54. ...  
55. ...  
56. ...  
57. ...  
58. ...  
59. ...  
60. ...  
61. ...  
62. ...  
63. ...  
64. ...  
65. ...  
66. ...  
67. ...  
68. ...  
69. ...  
70. ...  
71. ...  
72. ...  
73. ...  
74. ...  
75. ...  
76. ...  
77. ...  
78. ...  
79. ...  
80. ...  
81. ...  
82. ...  
83. ...  
84. ...  
85. ...  
86. ...  
87. ...  
88. ...  
89. ...  
90. ...  
91. ...  
92. ...  
93. ...  
94. ...  
95. ...  
96. ...  
97. ...  
98. ...  
99. ...  
100. ...

1. ...  
2. ...  
3. ...  
4. ...  
5. ...  
6. ...  
7. ...  
8. ...  
9. ...  
10. ...  
11. ...  
12. ...  
13. ...  
14. ...  
15. ...  
16. ...  
17. ...  
18. ...  
19. ...  
20. ...  
21. ...  
22. ...  
23. ...  
24. ...  
25. ...  
26. ...  
27. ...  
28. ...  
29. ...  
30. ...  
31. ...  
32. ...  
33. ...  
34. ...  
35. ...  
36. ...  
37. ...  
38. ...  
39. ...  
40. ...  
41. ...  
42. ...  
43. ...  
44. ...  
45. ...  
46. ...  
47. ...  
48. ...  
49. ...  
50. ...  
51. ...  
52. ...  
53. ...  
54. ...  
55. ...  
56. ...  
57. ...  
58. ...  
59. ...  
60. ...  
61. ...  
62. ...  
63. ...  
64. ...  
65. ...  
66. ...  
67. ...  
68. ...  
69. ...  
70. ...  
71. ...  
72. ...  
73. ...  
74. ...  
75. ...  
76. ...  
77. ...  
78. ...  
79. ...  
80. ...  
81. ...  
82. ...  
83. ...  
84. ...  
85. ...  
86. ...  
87. ...  
88. ...  
89. ...  
90. ...  
91. ...  
92. ...  
93. ...  
94. ...  
95. ...  
96. ...  
97. ...  
98. ...  
99. ...  
100. ...

